

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**JUMABAYEVA GULMIRA KAIRBAYEVNA**

**KOVAKLI LEGIRLANGAN  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$  VA LANTAN ASOSLI  
KUPRATLARDA METAL-DIELEKTRIK O‘TISHLAR VA ULARNING  
YUQORI HARORATLI O‘TAO‘TKAZUVCHANLIKKA TA’SIRI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
physical and mathematical sciences**

**Jumabayeva Gulmira Kairbayevna**

Kovakli legirlangan  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$  va lantan asosli kupratlarda metal-  
dielektrik o'tishlar va ularning yuqori haroratli o'tao'tkazuvchanlikka  
ta'siri ..... **3**

**Жумабаева Гулмира Каирбаевна**

Металл-диэлектрик переходы и их влияние на высокотемпературную  
сверхпроводимость в дырочно легированных купратах на основе  
лантана и  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$  ..... **23**

**Jumabaeva Gulmira Kairbaevna**

Metal-insulator transitions and their influence on high-temperature  
superconductivity in hole-doped cuprates based on lanthanum and  
 $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$  ..... **44**

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works..... **48**

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**JUMABAYEVA GULMIRA KAIRBAYEVNA**

**KOVAKLI LEGIRLANGAN  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$  VA LANTAN ASOSLI  
KUPRATLARDA METAL-DIELEKTRIK O‘TISHLAR VA ULARNING  
YUQORI HARORATLI O‘TAO‘TKAZUVCHANLIKKA TA’SIRI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1108 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.inp.uz](http://www.inp.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Kurbanov Ulugbek Tajibayevich</b> fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy hodim
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Raximov Abdulla Mannabovich</b> fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy hodim <b>Yavidov Bahram Yangibayevich</b> fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: [info@inp.uz](mailto:info@inp.uz)).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-19).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**M.Yu. Tashmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**O.R. Tojiboev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD., katta ilmiy xodim

**E.M. Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi vaqtda zamonaviy fizikaning dolzarb muammolari legirlangan mis oksidli (kuprat) o'ta o'tkazgichlarida va unga o'xshash kondensirlangan tizimlarda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik va metall-dielektrik o'tishlar muammolari hisoblanadi. Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan (YuHO'O') kupratlar elektron jarayonlarni adekvat miqdoriy nazariyasini qurmasdan va metall/o'ta o'tkazuvchan-dielektrik o'tishlarni, turli YuHO'O'-materiallarda dielektrik, metall va o'ta o'tkazuvchan fazalarning hosil bo'lishi va bo'linishini batafsil o'rganmasdan turib, ushbu eng muhim va murakkab muammolarni hal qilish mumkin emas. Legirlangan kupratlarda ushbu o'tishlarni o'rganish yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Qattiq jismlardagi metall-dielektrik o'tishlar nazariyasi zaryadlangan kvazizarralar (elektronlar yoki kovaklar) bilan ifodalangan tok tashuvchilarning lokallashgan va delokallashgan holatlari konsepsiyasini o'z ichiga olgan yagona unifikatsiyalangan model asosida rivojlanishi mumkin.

Zamonaviy eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kam legirlangan, optimal legirlangan va hatto o'ta legirlangan YuHO'O'-kupratlarning elektron xususiyatlari an'anaviy dielektriklar, metallar va o'ta o'tkazgichlarning xususiyatlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu tadqiqotlar natijasida nafaqat legirlangan YuHO'O'-kupratlardagi metall-dielektrik o'tishlar va o'ta o'tkazuvchanlikka o'tishlar haqida yangi bilimlar paydo bo'ladi, balki ushbu bilimlar asosida energetika va texnikaning turli sohalarida amaliy qo'llanilishi mumkin bo'lgan yuqori kritik temperaturali o'ta o'tkazuvchan  $T_c$  o'tishga ega istiqbolli YuHO'O'-materiallari yaratiladi. Shuning uchun, ushbu o'zaro bog'liq fundamental hodisalarning mexanizmlarini uchun metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarning imkoniyatlari va ularning o'ta o'tkazuvchanlikka o'tishning kritik harorati  $T_c$  ga ta'sirini, legirlangan YuHO'O'-kupratlarda metall/o'ta o'tkazuvchan va dielektrik fazalarning birgalikda mavjudligini o'rganish zarurdir.

O'zbekiston Respublikasida yarimo'tkazgich va o'ta o'tkazgichlar materialshunosligi sohalari jadal rivojlanmoqda, shu bilan birga, legirlangan YuHO'O' kupratlarda lokallashgan kovakli tok tashuvchilarning tabiati va metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarning mumkin bo'lgan mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kelgusida ilmiy taraqqiyot va amaliyotda foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu fundamental tadqiqotlar 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topgan.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 13-fevraldagi PQ-2772-sonli "2017-2021-yillarda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. “Energetika, energiya tejamkorligi va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kovakli legirlangan kupratlarda metall-dielektrik o‘tishlarni tadqiq qilish bilan dunyodagi ko‘plab tadqiqotchilar shug‘ullangan va shug‘ullanmoqda, shu jumladan, rossiyalik (L.D. Landau, S.I. Pekar, D.I. Khomsky, A.S. Alexandrov, V.F. Gantmakher, E.G. Maksimov, S.G. Ovchinnikov va boshq.), ukrainalik (A.L. Solovjov, R.V. Vovk va boshq.), germaniyalik (G. Fröhlich, H. Hess, F. Hensel va boshqalar), ingliz olimlari (R. Peierls, N.F. Mott, A. Wilson, J. Hubbard, D.M. Egles, P. P. Edwards, R.L. Johnston, A. Carrington, J.W. Loram, T. Rice va b.), belgiyalik (J.T. Devreese), yaponyalik (Y. Toyozawa, S. Uchida, Y. Koike, S. Ono, Y. Ando, M. Ido, A. Matsuda, T. Kato va boshqalar), amerikalik (R. Feynman, T. Holstein, P.W. Anderson, S.A. Kivelson, P.A. Lee, C.M. Varma, J. Devreyes, D. Emin, L.N. Cooper, W.J. Emery va boshqalar) va o‘zbekistonlik (S. Dzhumanov, B.Ya. Yavidov, P.J. Baymatov, B. Abdullayev, U.T. Kurbanov va boshqalar) tomonidan ko‘p yillar davomida o‘rganilgan.

Bu muammolar uzoq tarixga ega bo‘lib, 1933-yildan, Landau ishqoriy-galoid kristallarda F-markazlarning (elektron bilan qamrab olingan anion vakansiyasi) xossalari tushuntirib, elektronning avtolokallashish g‘oyasini ilgari surgandan boshlanadi. 1931-1958-yillar oralig‘ida A.Vilson, N.F.Mott, F.Vigner, R.Payers va F.V.Andersonlar kabi olimlar elektronlarning delokallashgan holatining lokallashgan holatga o‘tishini tushuntirish bilan shug‘ullanganlar va metall-dielektrik o‘tishlarning turli nazariyalarini taklif qilganlar. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: to‘liq to‘ldirilgan valent zonasining yuqorida joylashgan to‘ldirilmagan zona bilan kesishishida (Vilson o‘tishlari), kuchli elektron korrelyatsiyaning ta’siri, shu jumladan kristall panjaraning bitta atomi yoki ionida joylashgan ikkita elektronning Kulon itarilishi (Mott o‘tishi), elektron gazning kristallanishi (Vigner o‘tishi), bir o‘lchamli kristall panjaraning buzilishi va uning davrining ikki baravar ortishi (Payers o‘tishi) va panjaraning tartibsizligi (Anderson o‘tishi). Keyingi yillarda bu g‘oyalar qattiq jismlarning turli sinflarida, xususan, oksidli materiallar va legirlangan yarimo‘tkazgichlarda tok tashuvchilarning lokallashish va delokallashish hodisalarini va metall-dielektrik o‘tishlarni o‘rganishda rivojlantirildi. Xususan, Mott va Andersonning metall-dielektrik o‘tishlar haqidagi g‘oyalari oksidli dielektriklar va legirlangan yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasida faoliyat yuritadigan qator olimlarning tadqiqotlarida sezilarli darajada rivojlantirildi (J. Hubbard, O. Madelung, M.I.

Klinger, J.R. Kullen, E.R. Kallen, J. Kanamor, J. Zaanen, G.A. Savatski, J.V. Allen, B.I. Shklovskiy, A.L. Efros, G. Kotliar, V. Dobrosavljevik). Yangi legirlangan mis-oksidi (kupratli) YuHO‘O‘lar kashf etilishi bilan ushbu murakkab materiallarda tok tashuvchilarning lokallashishi va metall-dielektrik o‘tishlar muammolarini zamonaviy usullar va yondashuvlarni qo‘llagan holda tadqiq etish davom ettirildi (M. Imada, P. Klemmer, J. Fink, A.N. Lavrov, V.F. Gantmakher, G.S. Boebinger, Y. Endo, S. Castellani, P.A. Magette, J.B. Su, Yu Li, S. Ono, S. Djumanov).

Keng qamrovli nazariy tadqiqotlarga qaramasdan, legirlangan YuHO‘O‘-kupratlarda kovakli tok tashuvchilarning lokallashish va delokallashish mexanizmlari va metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu o‘tishlarning adekvat miqdoriy mezonlari haligacha aniqlanmagan, bu esa ularni to‘liq tushunishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, YuHO‘O‘-materiallarda tok tashuvchilar lokallashishi va metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishlar bo‘yicha nazariy ishlarda ushbu jarayonlarda muhim rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan g‘ayrioddiy elektron-nuqson-fonon va elektron-fonon kuchli o‘zaro ta’sirlar va polaron effektlarning ta’siriga yetarlicha e’tibor berilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrda PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan “YuHO‘O‘-kupratlarning elektron nazariyasi va uni dielektrik/metall va o‘ta o‘tkazuvchanlik fazalarining hosil bo‘lishi va nanomasshtabli bo‘linishida tadqiq qilish uchun qo‘llash” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** legirlangan YuHO‘O‘-kupratlarda bir va ikki turdagi tok tashuvchilarni lokallashish mexanizmlari, yangi metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishlarni amalga oshirish mexanizmlarini va ularning o‘ta o‘tkazuvchanlikka o‘tish kritik haroratiga  $T_c$  ta’sirini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

kupratli o‘ta o‘tkazgichlarning ikki tashuvchili modeli asosida kuchli elektron-fonon va elektron-kirishma-fonon o‘zaro ta’sirlari natijasida yuzaga kelgan legirlangan kupratlardagi metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tish mexanizmlarini o‘rnatish;

legirlangan oksidli YuHO‘O‘ materiallarida metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishlarning yangi mezonlarini va ulardagi kam legirlangan rejimdan o‘ta legirlangan rejimgacha bunday o‘tishlarni aniqlash;

kam va optimal legirlangan YuHO‘O‘-kupratlarda metall/o‘ta o‘tkazuvchan va dielektrik fazalarning bo‘linishi va birgalikda mavjudligini namoyish etish;

kam va optimal legirlangan oksidli YuHO‘O‘ materiallarida o‘ta o‘tkazuvchanlikka o‘tishning kritik haroratiga metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishlarning ta’sirini va ularda o‘ta o‘tkazuvchanlikning susayishi va kuchayishi

sabablarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kam legirlangan, optimal legirlangan va o'ta legirlangan  $La_{2-x}Ba_xCa_yCuO_4$  (LBCCO),  $La_{2-x-y}Nd_ySr_xCuO_4$  (LNSCO),  $La_{2-x}Ba_xCuO_4$  (LBCO),  $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  (LSCO) va  $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$  (YBCO) kupratlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** turli legirlash darajasiga ega bo'lgan YuHO'O'-kupratlarda bir va ikki turdagi zaryad tashuvchilarning lokallashish va delokallashish jarayonlari, yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar va ularning  $T_c$  ga ta'siri tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari:** variatsion usullar, adiabatik yaqinlashish va tashuvchilarning xususiy va xususiy bo'lmagan avtolokalashishning kontinual modelidan foydalanish, kuchli bog'lanish usuli, kompyuter grafikasi (Mathematica, OriginPro 8, CorelDRAW).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

$La_{2-x}Ba_xCa_yCuO_4$  va  $La_{2-x-y}Nd_ySr_xCuO_4$  kuprat o'ta o'tkazgichlarning ikki tashuvchili modeli doirasida metall-dielektrik o'tishlar dastlab kirishmasiz sohalarda kam legirlangan rejimdan optimal legirlangan rejimgacha, keyin esa optimal legirlangan va o'ta legirlangan rejimlarda kichik radiusli kirishmali sohalarda sodir bo'lishi ko'rsatilgan;

kovakli legirlangan  $La_{2-x}Ba_xCuO_4$  va  $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  kupratlarda kuchli kovakfonon o'zaro ta'sirlari va polyaron effektlari natijasida yuzaga keladigan yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarning yuqori chastotali dielektrik singdruvchanlik  $\epsilon_\infty$  ga va ulardagi polyaronlarning bog'lanish energiyasiga bog'liqligi aniqlangan, bu o'tishlar kam legirlangan rejimdan o'ta legirlangan rejimgacha bo'lgan oraliqda kuzatilgan;

kam legirlangan va optimal legirlangan YuHO'O'-kupratlar  $La_{2-x}Ba_xCuO_4$ ,  $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  va  $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$  da metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarning o'ta o'tkazuvchanlikning kritik haroratiga mumkin bo'lgan ta'sirlari va ularda o'ta o'tkazuvchanlikning susayishi va kuchayishi sabablari aniqlangan;

YuHO'O'-kupratlarda o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish kritik harorati  $T_c$  kam legirlangan kupratlarda polyaron effektining susayishi va uning optimal legirlangan kupratlarda yo'qolishi sababli o'ta o'tkazuvchanlik faza ulushining ortishi va dielektrik faza ulushining pasayishi bilan kam legirlangan rejimdan optimal legirlangan rejimgacha ortishi ko'rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ikki turdagi kovak tashuvchilarga ega bo'lgan legirlangan kupratli materiallarda yangi metall-dielektrik o'tishlar nazariyasi ishlab chiqilgan;

yangi metall/o'ta o'tkazuvchan-dielektrik o'tishlarning mezonlari va ularning legirlangan kupratlarda o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish kritik harorati  $T_c$  ga ta'siri uchun formulalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** kirishmalar yaqinida va deformatsiyalanuvchi kristall panjarada zaryad tashuvchilarning avtolokalizatsiya jarayonlarini tavsiflash uchun sinovdan o'tgan matematik usullar va fizik

modellardan, shuningdek, Mott-Xabbar modelidan foydalanish va olingan natijalarning mavjud eksperimental ma'lumotlarga muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan nazariy xulosalar bir va ikki kovakli zaryad tashuvchilarning lokallashishi va delokallashishi, metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar haqidagi fizik tasavvurlarni kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati legirlangan YuHO'O'-materiallardagi yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarning rivojlangan nazariyasi elektron xususiyatlari yaxshilangan oksidli YuHO'O'-materiallarni yaratishning mumkin bo'lgan yo'llarini oldindan bashorat qilish imkonini berishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kovakli legirlangan kupratlarda bir va ikki turdagi zaryad tashuvchilarning metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlari va ularning yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikka ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$La_{2-x}Ba_{x-y}Ca_yCuO_4$  va  $La_{2-x-y}Nd_ySr_xCuO_4$  kupratli o'ta o'tkazgichlarning ikki tashuvchili modeli, shuningdek, o'ta o'tkazuvchanlikning kritik haroratiga metall/o'ta o'tkazuvchan-dielektrik o'tishlarning ta'siri va  $La_{2-x}Ba_xCuO_4$ ,  $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  va  $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$  materiallarda o'ta o'tkazuvchanlikning susayishi va kuchayishining aniqlangan sabablari bo'yicha olingan natijalar, "Kvant fizikasi" kursi dasturi doirasida o'quv jarayonida qo'llanilgan (Qizil-Qiya gumanitar-pedagogika institutining 2024 yil 3 dekabrda 395-sonli xati). Natijalardan foydalanish talabalarning zamonaviy kondensirlangan holat fizikasi muammolari haqidagi tushunchalarini kengaytirish va kvant fizikasi kursi bo'yicha talabalar uchun ta'lim sifatini oshirish imkonini bergan;

kovakli legirlangan  $La_{2-x}Ba_xCuO_4$  va  $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  kupratlarda kuchli kovakfononli o'zaro ta'sirlar va polaron effektlar natijasida hosil bo'lgan yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarni amalga oshirish bo'yicha olingan natijalar Birlashgan yadro tadqiqotlar instituti N.N. Bogolyubov nomidagi Nazariy fizika laboratoriyasida yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarda olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar doirasida foydalanilgan (Birlashgan yadro tadqiqotlar instituti N.N. Bogolyubov nomidagi Nazariy fizika laboratoriyasi 13.12.2024-yildagi 300-20/25-sonli xati). Natijalardan foydalanish nazariy modellarning eksperimental natijalar bilan muvofiqligini baholash, xususan, zamonaviy kondensirlangan holat fizikasi muammolari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 10 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqot ishning maqsadi va vazifalar, ob'ekti, predmeti va usullari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amalyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kuprat YuHO'O'-materiallarning elektron xossalari va metall-dielektrik o'tishlarning turlari**" deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot yo'nalishi bilan bog'liq adabiyotlar sharhi keltirilgan. Ushbu bob doirasida legirlanmagan kupratning elektron xususiyatlari, kristallografik tuzilishi va antiferromagnit xususiyatlari tahlil qilingan, shuningdek, YuHO'O' kuprat materiallarida zaryad tashuvchilarning mumkin bo'lgan lokalizatsiya mexanizmlari va metall-dielektrik o'tishlarning asosiy turlari muhokama qilingan. Xususan, Vilson, Mott, Anderson, Payerls va boshqa tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan metall-dielektrik o'tish mexanizmlari tahlil qilingan. Legirlangan YuHO'O'-kupratlarda metall-dielektrik o'tishlar bilan bog'liq hal qilinmagan asosiy masalalar aniqlandi, ularni hal qilish uchun mumkin bo'lgan yondashuvlar muhokama qilindi. Tahlillar asosida ushbu dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning "**Lantan asosli kovakli legirlangan kupratlarda metall-dielektrik o'tishlar**" deb nomlangan ikkinchi bobida biz kovakli tok tashuvchilarning lokallashgan holatlarini hosil qilish, kichik va katta radiusli kirishmalar bilan legirlangan Lantan asosli o'ta o'tkazgichlarda metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini bir va ikki turdagi zaryad tashuvchilar modelida o'rgandik.

Kovakli legirlangan kupratlarda har xil turdagi legirlovchi kirishmalar uchun vaziyatlar butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Xususan, kovaklar va kichik radiusli nuqsonlar uchun deformatsiya potentsiali konstantasi  $E_d$  va  $E_{dD}$  ishoralari har doim musbat, katta radiusli nuqsonlar uchun esa  $E_{dD}$  ishorasi manfiy bo'ladi.

I.  $La_{2-x}Ba_{x-y}Ca_yCuO_4$  va  $La_{2-x-y}Nd_ySr_xCuO_4$  larda kovaklar va kichik radiusli legirlovchi kirishmalarining deformatsiya potentsiallari ishoralari musbat, bu yerda tok tashuvchi-kirishma-fonon o'zaro ta'siri kichik radiusli legirlovchi kirishmalar yaqinida (masalan,  $Ca^{2+}$  va  $Nd^{3+}$  ionlari yaqinida) tortishuvchi hisoblanadi. Binobarin, ushbu lantan asosli kupratlardagi kovakli tashuvchilar yuqori legirlash darajalarida kirishma zonasini hosil qilishi mumkin bo'lgan vodorodsimon bo'lmagan lokallashgan kirishma holatlarini hosil qilgan holda bunday kirishmalar yaqinida avtolokallashadi. Aytish mumkinki, kovakli tashuvchilarning ma'lum bir

qismi kichik radiusli legirlovchi kirishmalar yaqinida joylashadi, kovakli tashuvchilarning boshqa qismi esa deformatsiyalanuvchi panjarada katta polyaronlarni hosil qilish bilan avtolokallashadi. Endi kichik radiusli kirishmalar bilan legirlangan ( $Ca^{2+}$  va  $Nd^{3+}$ ) lantan kupratlarda kuchli tok tashuvchi-kirishma-fonon va tok tashuvchi-fonon o'zaro ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgan metall-dielektrik o'tishlarni o'rganishda ushbu holatlarni hisobga olamiz. Endi biz ikki tok tashuvchli kuprat o'ta o'tkazgich modelida metall-dielektrik o'tishlar uchun yangi mezonlarni aniqlaymiz.

Tabiiyki, kirishma markazlari va polyaronlar legirlangan kupratlarda o'ta panjaralar, shuningdek kirishma va polyaron zonalarini hosil qilishi mumkin. Legirlangan materiallarda zaryad tashuvchilarning ikkita mavjud turi kirishma va polyaron zonalarida joylashganda, kirishma zonasidagi zaryad tashuvchilarning Fermi energiyasi  $\varepsilon_{FI}$  va polyaron zonasidagi Fermi energiyasi  $\varepsilon_{Fp}$  quyidagicha aniqlanishi mumkin

$$\varepsilon_{FI} = \hbar^2(3\pi^2 f_I n)^{2/3} / 2m_I \quad (1)$$

va

$$\varepsilon_{Fp} = \hbar^2(3\pi^2(1 - f_I)n)^{2/3} / 2m_p \quad (2)$$

bu yerda  $f_I$  - kirishma zonasida joylashgan zaryad tashuvchilarning ulushi,  $m_I$  - bunday zaryad tashuvchilarning massasi,  $m_p$  - katta polyaronlarning massasi,  $n$  - legirlangan zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi.

Ikki tashuvchili kupratli o'ta o'tkazgich modelida tashuvchilarning lokalizatsiya shartlari yoki metall-dielektrik o'tishlar uchun yangi mezonlar bir tashuvchili kuprat o'ta o'tkazgich modelida aniqlangan metall-dielektrik o'tishlar uchun yozilgan mezonlardan farq qiladi va quyidagicha yozilishi mumkin

$$\frac{E_I}{\varepsilon_{FI}} = \frac{2E_I m_I}{\hbar^2(3\pi^2 f_I n)^{2/3}} \geq 0.5 \frac{a_I}{R_I} \quad (3)$$

va

$$\frac{E_p}{\varepsilon_{Fp}} = \frac{2E_p m_p}{\hbar^2(3\pi^2(1 - f_I)n)^{2/3}} \geq 0.5 \frac{a_p}{R_p} \quad (4)$$

bu yerda  $E_I$  - kirishma markazlari bilan bog'langan zaryad tashuvchilarning bog'lanish energiyasi,  $a_I$  - kirishmaning o'ta panjara parametri,  $R_I$  - kirishma markazi radiusi,  $E_p$  - polyaronning bog'lanish energiyasi,  $a_p$  - polyaronning o'ta panjara parametri,  $R_p$  - polyaron radiusi. Endi (3) va (4) mezonlar ma'lum legirlash darajasi  $n=n_c$  uchun quyidagicha yozilishi mumkin

$$x = x_{cI} = \frac{n_c}{n_a} = \frac{1}{3\pi^2 f_I n_a} \left[ \frac{4m_I E_I R_I}{\hbar^2 a_I} \right]^{3/2} \quad (5)$$

va

$$x = x_{cp} = \frac{n_c}{n_a} = \frac{1}{3\pi^2(1-f_I)n_a} \left[ \frac{4m_p E_p R_p}{\hbar^2 a_p} \right]^{3/2} \quad (6)$$

bu yerda  $n_a = 1/V_a$  - panjara atomlarining zichligi,  $V_a$  - kupratlardagi  $CuO_2$  ning formula birligiga to'g'ri keladigan hajm.

Kirishma markazlari va polyaronlar oddiy kub o'ta panjaralarni hosil qiladi deb taxmin qilamiz. Kirishma markazlari va polyaronlarning oddiy kub o'ta panjaralari uchun panjara parametrlari  $a_I = 2R_I$  va  $a_p = 2R_p$  kabi aniqlanishi mumkin. Shunday qilib, ushbu kirishma markazlari va polyaronlarga metall-dielektrik o'tishlar uchun (5) va (6) mezonlarni qo'llab, biz kuchli tok tashuvchi-kirishma-fonon va tok tashuvchi-fonon o'zaro ta'sirlar tufayli yuzaga kelgan metall-dielektrik o'tishga mos keladigan quyidagi legirlashning kritik darajalarini olamiz:

$$x_{cl} = \frac{V_a}{3\pi^2 f_I \hbar^3} [2m_I E_I]^{3/2} \quad (7)$$

va

$$x_{cp} = \frac{V_a}{3\pi^2(1-f_I)\hbar^3} [2m_p E_p]^{3/2} \quad (8)$$

Legirlashning bunday kritik darajalarida kupratlarda dielektrik holatdan metall holatga yoki metall holatdan dielektrik holatga o'tishlar sodir bo'ladi.

### 1-jadval

$\eta = 0.02$  hol uchun  $E_I$  va  $\varepsilon_\infty$  ning turli qiymatlarida legirlashning hisoblangan kritik darajalari  $x_{cl}$

$E_I=0.1240$ eV, $\varepsilon_\infty=3.5$		$E_I=0.0943$ eV, $\varepsilon_\infty=4$		$E_I=0.0741$ eV, $\varepsilon_\infty=4.5$	
$f_I$	$x_{cl}$	$f_I$	$x_{cl}$	$f_I$	$x_{cl}$
0.5	0.213	0.5	0.141	0.5	0.098

(7) ifodadan foydalanib,  $La_{2-x}Ba_{x-y}Ca_yCuO_4$  va  $La_{2-x-y}Nd_ySr_xCuO_4$  larda kuchli tok tashuvchi-kirishma-fonon o'zaro ta'sirlari natijasida yuzaga kelgan metall-dielektrik o'tishlar sodir bo'ladigan  $x_{cl}$  legirlashning kritik darajalarini hisoblaymiz.  $\eta=0.02$  da  $E_I$  va  $\varepsilon_\infty$  ning turli qiymatlarida  $x_{cl}$  uchun hisoblash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Ushbu natijalardan kelib chiqadiki,  $\varepsilon_\infty$  kamayishi bilan metall-dielektrik o'tishlar legirlashning yuqori darajalarida sodir bo'ladi.

(8) ifodadan foydalanib,  $La_{2-x}Ba_{x-y}Ca_yCuO_4$  va  $La_{2-x-y}Nd_ySr_xCuO_4$  larda kuchli tok tashuvchi-fonon o'zaro ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan metall-dielektrik o'tishlar sodir bo'ladigan  $x_{cp}$  legirlashning kritik darajalarini hisoblaymiz.

Hisoblash natijalari  $x_{cp}$  uchun  $\eta=0.02$  da,  $E_p$  va  $\varepsilon_\infty$  ning turli qiymatlarida 2-jadvalda keltirilgan.

$\eta=0.02$  hol uchun  $E_I$  va  $\varepsilon_\infty$  ning turli qiymatlarida legirlashning hisoblangan kritik darajalari  $x_{cp}$

$E_p=0.1063 \text{ эВ},$ $\varepsilon_\infty=3.5$		$E_p=0.0811 \text{ эВ},$ $\varepsilon_\infty=4$		$E_p=0.0640 \text{ эВ},$ $\varepsilon_\infty=4.5$	
$f_p$	$x_{cp}$	$f_p$	$x_{cp}$	$f_p$	$x_{cp}$
0.5	0.144	0.5	0.096	0.5	0.067

1 va 2 jadvallardan ko‘rinib turibdiki, metall-dielektrik o‘tishlar legirlashning yuqori darajalarida  $\varepsilon_\infty$  ning 4.5 dan 3.5 gacha kamayishi bilan sodir bo‘ladi.

Ilgari taklif etilgan nazariy modellar tajribalarda olingan ma‘lumotlarni to‘liq tushuntirib bera olmaydi, ammo taklif etilgan modeldan tajribalarda olingan natijalarga yaxshi mos keladigan qiymatlarni olish uchun foydalanish mumkin.

II. Agar legirlovchi kirishmalar yaqinida elektron-fonon o‘zaro ta’sirlar kuchsiz bo‘lsa, kovakli legirlangan kupratlarda oddiy vodorodsimon kirishma markazlari hosil bo‘ladi. Bunday holat  $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  (LSCO) va  $La_{2-x}Ba_xCuO_4$  (LBCO) da amalga oshiriladi, ularda  $Sr^{2+}$  (1.31 Å) va  $Ba^{2+}$  (1.47 Å) radiuslari  $La^{3+}$  (1.216 Å) ga qaraganda kattaroq, shuning uchun  $Sr^{2+}$  va  $Ba^{2+}$  uchun deformatsiya potentsiali ishorasi manfiy. Bundan kelib chiqadiki, LSCO va LBCO dagi katta radiusli legirlangan kirishmalar yaqinidagi kovaklarning panjara bilan o‘zaro ta’siri itaruvchi kirishma potentsiali bilan kamaytiriladi, kovak tashuvchilar esa legirlangan kirishmalardan uzoq masofada joylashadi (ya’ni, kovak tashuvchilar legirlangan kirishmalardan uzoqda ta’sir etuvchi Kulon tortishishi bilan kuchsiz bog‘langan)  $Sr^{2+}$  va  $Ba^{2+}$  vodorodsimon kirishma markazlarini hosil qiladi. Bu bir tok tashuvchili qattiq jism modelida kirishma markazlaridagi elektron korrelyatsiyaga bog‘liq bo‘lgan Mott metall-dielektrik o‘tishining yaqqol misolidir. Ushbu metall-dielektrik o‘tish faqat LSCO va LBCO da juda past legirlash darajalarida ( $x \leq 0.02$ ) sodir bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, bu materiallarda kovaklarning panjara bilan kuchli o‘zaro ta’siri tufayli yangi metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishning boshqa turi kuchsiz legirlangan, optimal legirlangan va hatto o‘ta legirlangan kupratlarda bir tok tashuvchili qattiq jism modelida ham mavjud bo‘lishi mumkin. Legirlangan kupratlarda bunday yangi metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishning aniq mezonini quyidagicha yozish mumkin

$$x = x_c = \frac{n_c}{n_a} = \frac{1}{3\pi^2 n_a} \left[ \frac{4m_p E_p R_p}{\hbar^2 a_p} \right]^{3/2}. \quad (9)$$


Turli koordinatsion sonlarga  $z$  ega bo‘lgan oddiy kub, hajmiy markazlashgan va yoqlarda markazlashgan kub polyaron o‘ta panjaralari uchun panjara doimiylarini  $R_p = \frac{a_p}{2}$ ,  $R_p = \frac{\sqrt{3}}{4} a_p$  va  $R_p = \frac{\sqrt{2}}{4} a_p$  formulalari yordamida aniqlash mumkin. Metall/o‘ta o‘tkazgich-dielektrik o‘tishlar uchun (9) mezonni qo‘llab, oddiy kub, hajmiy markazlashgan kub va yoqlarda markazlashgan kub polyaron o‘ta panjaralar holatlarida quyidagilarni yozish mumkin:

$$x_{c1} = \frac{1}{3\pi^2 \hbar^3 n_a} [2m_p E_p]^{3/2}, \quad z = 6 \quad (10)$$

$$x_{c2} = \frac{1}{\sqrt[4]{3}\pi^2 \hbar^3 n_a} [m_p E_p]^{3/2}, \quad z = 8 \quad (11)$$


$$x_{c3} = \frac{1}{3\pi^2 \hbar^3 n_a} [\sqrt{2}m_p E_p]^{3/2}, \quad z = 12 \quad (12)$$

LSCO va LBCO da  $\eta$  kamayishi bilan  $x_c$  o'zgarishi 1-rasmda  $z=6$ ,  $\varepsilon_\infty = (2.5 - 5.0)$  va  $\eta = (0.01 - 0.14)$  uchun ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki,  $z=6$  va  $\varepsilon_\infty < 3$  bo'lganda ushbu kuprat materiallarda kuchsiz legirlangan rejimdan o'ta legirlangan rejimgacha oraliqda yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar sodir bo'ladi.




**1-rasm. LSCO va LBCO dagi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarga mos tok tashuvchilarning kritik konsentratsiyasining  $x_c$  ( $z=6$  bo'lganda)  $\eta$  va  $\varepsilon_\infty$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi**

LSCO va LBCO da  $\eta$  ning kamayishi bilan  $x_c$  ning o'zgarishi 2-rasmda  $z=8$ ,  $\varepsilon_\infty = (2.5 - 5.0)$  va  $\eta = (0.01 - 0.14)$  uchun ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki,  $z=8$  va  $\varepsilon_\infty < 3$  da ushbu kuprat materiallarida yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar kuchsiz legirlangan rejimdan o'ta legirlangan rejimgacha oraliqda sodir bo'ladi.



**2-rasm. LSCO va LBCO dagi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarga mos tok tashuvchilarning kritik konsentratsiyasining  $x_c$  ( $z=8$  uchun)  $\eta$  va  $\varepsilon_\infty$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi**

LSCO va LBCO da  $\eta$  ning kamayishi bilan  $x_c$  ning o'zgarishi 3-rasmda  $z=12$ ,  $\epsilon_\infty = (2.5 - 5.0)$  va  $\eta = (0.01 - 0.14)$  uchun ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki,  $z=12$  va yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar ushbu kuprat materiallarda kuchsiz legirlangan rejimdan optimal legirlangan rejimgacha oraliqda sodir bo'ladi.




**3-rasm. LSCO va LBCO dagi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlariga mos tok tashuvchilar kritik konsentratsiyasining  $x_c$  ( $z=12$  uchun)  $\eta$  va  $\epsilon_\infty$  ga bog'liq ravishda o'zgarishi**

Biz bir zaryad tashuvchiga ega bo'lgan katta radiusli kirishmali legirlangan lantan kupratlarda metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlarning yangi mexanizmlarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rgandik. 1- va 2-rasmlarda  $\epsilon_\infty = 2.5$ ,  $\eta = 0.02$  va  $z=6$  va  $8$  uchun keltirilgan nazariy natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilganidek, LSCO va LBCOda yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar chuqur o'ta legirlangan sohada ( $x_c \gtrsim 0.2$ ) sodir bo'ladi.


Dissertatsiyaning “**Yangi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar va ularning kam legirlangan va optimal legirlangan kupratlarda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikka ta'siri**” deb nomlangan uchinchi bobida deformatsiyalangan kristall panjarali kupratlar sohalarida akustik va optik fonon tebranishlari bilan legirlangan kovaklarning nuqsonsiz o'zaro ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, ushbu materiallarda yangi metall-o'ta o'tkazgich va o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar va ularning yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikka ta'siri ko'rib chiqilgan. Qutbli kuprat materiallariga legirlash yo'li bilan kiritilgan kvazierkin kovak tashuvchilar panjara tebranishlari bilan kuchli o'zaro ta'sirda avtolokallashadi va shuning uchun ushbu legirlangan kovak tashuvchilar panjaraning lokal buzilishlari bilan o'rab olinadi va effektiv massalari  $m_p \simeq (2 - 3)m_e$  (bu yerda  $m_e$ - erkin elektron massasi) bo'lgan katta polyaronlarga aylanadi. Legirlash darajasi ma'lum bir kam legirlash rejimiga ko'tarilganda, legirlangan kuprat materiali dielektrik holatdan metall holatga o'tishi mumkin.  $T_c$  dan pastda bunday metall-dielektrik o'tish o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tish sifatida sodir bo'ladi. Legirlangan kupratlarda metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishning yangi mezonini quyidagicha yozish mumkin

$$x \gtrsim x_c = \frac{n_c}{n_a} = \frac{1}{3\pi^2 \hbar^3 n_a} [2m_p E_p]^{\frac{3}{2}}. \quad (13)$$

Endi  $La$  va  $Y$  ( $La_{2-x}Sr_xCuO_4$  va  $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ ) asosidagi yuqori haroratli kupratlarda metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar uchun  $x_c$  kritik legirlash darajalarini hisoblaymiz. Bunda biz  $\epsilon_\infty = 2.5 - 4.0$  va  $\eta = 0.04$  da  $E_p \simeq (0.078 - 0.2)$  eV ning hisoblangan qiymatlarini va  $m_p \simeq (2 - 3)m_e$  ning eksperimental qiymatlarini olamiz. Keyinchalik,  $\epsilon_\infty$  ning LSCO va YBCO da  $x_c$  kamayish bilan o'zgarishi  $\eta = 0.04$  uchun 4 va 5-rasmlarda ko'rsatilgan.



**4-rasm. LSCOda  $\eta = 0.04$  uchun  $\epsilon_\infty$  ning kamayishi bilan  $x_c$  ning o'zgarishi**



**5-rasm. YBCOda  $\eta = 0.04$  uchun  $\epsilon_\infty$  ning kamayishi bilan  $x_c$  ning o'zgarishi**

Yuqorida keltirilgan metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar uchun nazariy natijalar kam legirlangan va optimal legirlangan kupratlardagi metall/o'ta o'tkazgich-dielektrik o'tishlar bo'yicha eksperimental ma'lumotlar bilan yaxshi mos keladi. Xususan, bizning natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, YBCO da metall/o'ta o'tkazuvchan-dielektrik o'tishlar va fazalarning raqobatlashuvchi metall/o'ta o'tkazuvchan-dielektrik fazalarga bo'linishi eksperimental kuzatuvlarga muvofiq  $0.05 \lesssim x_c \lesssim 0.19$  legirlash diapazonida sodir bo'ladi.

Dielektrik va metall/o'ta o'tkazuvchan fazalar kam legirlangan va optimal legirlangan YuHO'O' kupratlarda raqobatlashadi, bu yerda  $T_c$  dan pastda o'ta o'tkazuvchan bo'lmagan (ya'ni harakatsiz) va o'ta o'tkazuvchan kovakli tok tashuvchilar mos ravishda tok tashuvchilari kam (dielektrik) va tok tashuvchilarga boy (o'ta o'tkazuvchan) sohalarida joylashgan. Yetarlicha keng polyaron zonasida joylashgan kovakli tok tashuvchilar harakatchan bo'lishi mumkin va ularning Kuper juftlashishi impuls ( $k$ -) fazosida sodir bo'ladi va  $T_c$  dan yuqorida polyaron (ya'ni kuchli bog'langan) Kuper juftlarini hosil qiladi, ular o'zlarini boz-zarrachalar kabi tutadi va  $T_c$  dan pastda o'ta oquvchan holatga kondensatsiyalanadi. Aslida, bunday oldindan hosil bo'lgan Kuper juftliklari legirlangan yuqori haroratli kupratlarda  $\epsilon_F \sim \epsilon_A$  (bu yerda  $\epsilon_F$  Fermi energiyasi va  $\epsilon_A$  - ikkita polyaron tashuvchilar orasidagi tortishish energiyasi) da mavjud bo'ladi.

Chunki  $\{-\varepsilon_A, \varepsilon_A\}$  energiya oralig'ida katta polaronlar o'rtasidagi juft o'zaro ta'sir mexanizmi oddiy BKSh modeliga qaraganda ancha kuchli.

Bu holda kuchli o'zaro ta'sirlashuvchi polaron fermi-gazning juft gamiltoniani Fermi operatorlarining Bogolyubov almashtirishi yordamida diagonallashtirilishi mumkin. Keyin poloyaronlararo o'zaro ta'siri modeli potentsialidan foydalanish va polaronlarning Kuper juftlashish haroratini  $T^*$  aniqlash uchun quyidagi BKSh-simon tirqish tenglamasini olish mumkin:

$$\frac{1}{\lambda_F} = \frac{1}{D(\varepsilon_F)\tilde{V}_F} = \int_0^{\varepsilon_A} d\xi \frac{\tanh \frac{\sqrt{\xi^2 + \Delta_F^2(T)}}{2k_B T}}{\sqrt{\xi^2 + \Delta_F^2(T)}}, \quad (14)$$

